

27-iyun - Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

N:25-26 (67034-35)
2015-yil
22-iyun

Tong yulduzi

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqq boshlagan O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi ISSN - 2010-6092

**Bugun yoshlarimiz hal qiluvchi kuch bo'lib hayotga kiriyapti.
Men bu yoshlarga o'zinga ishongandek ishonaman.**
Islom KARIMOV



**Bilim ol, Ulug'bek, Uvaysiy nasli,
Kelajak egasi sen o'zing asli!**
(2-bet)

Buxoro viloyatining Qorako'l tumani-
dagi 1-ixtisoslashtirilgan davlat
umumta'lim maktab-internati
o'quvchisi Abbas Sayliyev joriy yilning
27-iyul - 1-avgust kunlari Xitoyda bo'lib
o'tadigan matematika fanidan xalqaro
musobaqada ishtirok etadi.



BILIM OL, ULUG'BEK, UVAYSIIY NASLI, KELAJAK EGASI SEN O'ZING ASLI!



«Savollarning barchasi menga tanish, javoblarni yozsam bo'laveradi». Alisher XO'JAMOV, Navoiy shahridagi 12-IDUM 7-sinf o'quvchisi.

«Iqtidorli bolalar ko'p ekan...» Madina IBRAGIMOVA, Urganch shahridagi 1-umumta'lim maktabi o'quvchisi.



Respublikamiz umumta'lim maktablarida iste'dodli o'quvchilarni kashf etish, ta'lim maskanlarida sog'lom raqobatni shakllantirish orqali ularning bilim olishga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirish maqsadida to'rt bosqichli bilimlar bellashuvi mexanizmi joriy qilindi. Mazkur tanlovning ahamiyatli jihati shundaki, ta'lim muassasalarining o'qitish sifati bo'yicha ko'rsatkichlari aniqlandi hamda xalq ta'limi boshqaruvi idoralari faoliyati baholanib, yurtimizdagi 194 ta tuman (shahar)larning reytingi belgilandi.

5–8-sinf o'quvchilari o'rtasida kechgan bu yilgi bellashuvda 17 ta fan bo'yicha 2 mln. 100 ming nafardan ziyod o'quvchilar o'zaro kuch sinashishdi. Bilimlar bellashuvining uchinchi — viloyat bosqichida g'oliblikni qo'lga kiritgan 500 nafar bilimdonlar mamlakat bosqichida ishtirok etish bilan birga, yozgi «Intelktual rivojlantirish oromgohi»da dam olish yo'llanmasini ham qo'lga kiritishdi.

Ushbu kun R. Glier nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa akademik litseyi iqtidorli o'quvchilar bilan gavjum bo'ldi. Bellashuvning aniq, tabiiy va ijtimoiy hamda filologiya fanlari yo'nalishida kuch sinashmoqchi bo'lgan bilimdonlar qalbi hayajondan to'lib-toshgan. Auditoriyalarni to'ldirgan bilimdonlar bugungi sinovdan ham yuqori natijalarni egallab, viloyati sharafini munosib himoya qilishni niyat qilishgani tayin. Nima bo'lgandayam, bugun do'stlik g'alaba qilishi aniq.

Zero, ertamiz egalari, kelajagimizning munosib vorislari har qancha e'tirofga loyiq.



Farg'ona viloyatining Buvayda tumanidan kelgan Maftuna Imomaliyeva sinovdan birinchilardan bo'lib chiqdi.



Bellashuv bahona buxorolik Zulfizar Tosheva poytaxtlik Nozima Adhamova bilan dugona tutindi.



Samarqandlik Jahongir Murodillayev, Bobur Ergashev hamda Xudoyberdi Xolmurzayevlar muxbirga intervyu berishga ham ulgurishdi.



Xorazmlik Sardorbek Sherjonov va navoiylik Sabina Ro'ziyeva tarix fani bo'yicha bellashuv taassurotlari yuzasidan o'rtoqlashmoqda.




Navoiy viloyati vakili Aziza Botiraliyeva tarix fanidan, xorazmlik Asad Bekchanov esa iqtisodiy bilim asoslari bo'yicha sinovdan o'tdi.

«Bilimlar yuzasidan savol-javob yotoqxonada ham davom etdi», deyishdi Qoraqalpog'iston Respublikasidan kelgan Otabek Sitonov va Xo'jaahmad Sarsenboevlar.



Sahifa O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi axborot xizmati hamda o'z muxbirlarimiz hamkorligida tayyorlandi

Farg'onada gazetamizning yaqin do'sti bo'lgan bir inson bor. Marg'ilon shahri va qo'shni Qo'shtepa, Toshloq, Oltiariq tumanlaridagi ishlab chiqarish korxonalari, kasb-hunar kollejlari, umumta'lim maktablari-yu fermer xo'jaliklari hamda mahalla fuqarolar yig'inlarini goh velosipedda, goh piyoda kezib xushxabarlar yig'uvchi otaxonni ko'pchilik tanib qolgan, yangiliklar bilan qiziqadigan tinib-tinchimas mehnat faxriysi Muhammadjon MAHMUDOVni marg'ilonliklar «Yangiliklar jarchisi», deb qadrlaydilar.



FAXRIYLAR - FAXRIMIZ

Nashrimiz sahifalarini o'qishli maqolalar bilan boyitishda jamoatchi muxbirimiz Muhammadjon akaning o'rni katta. U kishi bu yil 77 bahorni qarshi oldi. 42 yillik mehnat faoliyatida turli mas'uliyatli lavozimlarda xizmat qilib, bugun keksalik gashtini surayotgan otaxon 5 farzandi, bir etak nabiralari qurshovida. Ota o'n ikki yildan buyon «Yo'rmado'z» mahalla fuqarolar yig'ini «Nuroni» jamoatchilik markazi raisi vazifasini bajarib kelmoqda. Shuningdek, shahar «Nuroni» jamg'armasi bo'linmasi kengashi a'zosi. Tashabbuskor,

shijoatli bobo o'tgan yillarda «Keksalik – bekorchilik emas», «Eng namunali «Nuroni» jamoatchilik markazi» ko'rik-tanlovlarida faol ishtiroki uchun munosib taqdirlangan. Shuningdek, Ikkinchi jahon urushi va urush ortida mehnat qilgan faxriylarning bugungi hayoti, yoshlarni vatanparvarlik va insonparvarlik ruhida tarbiyalashga doir maqola, lavha va xabarlar uchun «O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligiga 20 yil» esdalik ko'krak nishoni bilan mukofotlangan.

Muhammadjon otaga o'xshab hayotini

yaxshilikka bag'ishlaydigan va o'zi ham yaxshiliklar ichra yayrab yashaydigan odamlar ko'payaversin. Umri atrofdegilar ma'naviyatini boyitishga sarflayotgan nuroni otaxon bugun nabiralari e'zozida. Bobo hamisha qo'lini fothiga ochar ekan, yurtga tinchlik-xotirjamlik, xalqqa ezgulik tilaydi.

Farg'onalik ota haqida yozar ekanmiz, barchamizga ana shunday fayzli keksalik, e'zozda bo'lish baxti nasib etishini istadik.

Kasb bayrami arafasida ustozlarni muborakbod etish quvonchli ekanligini yana bir bor his etdik!

ONAJONIM TABIAT

Bizga maktub yo'llabsiz...

OLIV NE'MAT

Bugungi kunda tabiat muvozanatidagi o'zgaruvchanlik jamoatchilikdan jiddiy amaliy yondashuvni talab qilmoqda.

Chunki ekologik muammolar dunyo miqosida hal etilayotgan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy masalalar qatori o'ta dolzarb ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda atrof-muhit muhofazasiga oid «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida», «Suv va suvdan to'g'ri foydalanish to'g'risida», «Atmosfera havosini muhofaza qilish», «Chiqindilar to'g'risida»gi Qonunlar qabul qilingani bejiz emas. Bundan tashqari, BMT tomonidan aynan tabiatni asrashga e'tibor qaratish uchun alohida sanalar belgilanganida ham ko'rish mumkin.

Yosh avlodda ona tabiatga mehr uyg'otish maqsadida maktabimizda «Yosh tabiatshunoslar» to'garagi tashkil etilgan. To'garak rahbari N. Hasanova biz o'quvchilar bilan muntazam ravishda mashg'ulotlar olib boradi. Maktabimiz hududida mo'jazzgina bog' tashkil etganmiz. 85 yoshni qarshilagan bog'bonimiz Bahrom bobo boshchiligida turli xil mevali daraxtlarga o'z vaqtida suv quyib, tagini yumshatib, mehr bilan parvarishlamodamiz. Ularning ta'kidlashlaricha, inson o'zi yashab turgan joyni doimo sevishi va qo'lidan kelganча obod qilishi kerak ekan.

Dilnoza ADILBOYEVA,
Navoiy viloyati, Navbahor tumanidagi 2-umumta'lim maktabi o'quvchisi



Tabiat bizning yaqin do'stimiz. Bolaligimdan qushlarga in qurib, ularni parvarishlash sevimli mashg'ulotlarimdan biriga aylangan.

Toshbaqa, tipratikanlarni ham hovlimizning bir burchagida boqaman. Turfa gullar o'stirish jon-u dilim. Bahorda va kuzda daraxtlarning tagini yumshatishda, sug'orishda, oqlashda ko'maklashaman. Uy-hovlilarni, tevarak-atrofimizni ozoda saqlayman, chiqindilarni duch kelgan joyga tashlamayman. Ayniqsa, yoz kunlarida undan turli yuqumli kasalliklar tarqalishining oldini olish maqsadida chiqindilarni belgilangan joylarga olib borib to'kamiz. Shuningdek, hayot manbaimiz bo'lgan suv, elektr energiyasi, gaz, o'z navbatida, moddiy boyliklarimiz ekanligi, ularni tejab ishlatish, asrab-avaylash insoniylik burchimiz sanalishini yodimda tutaman. Uy hayvonlariga, qushlarga ozor bermaslikka harakat qilamiz. Chunki qushlar daraxtlarni qurt-qumursqalardan tozalaydi. Tabiat bizga in'om etgan oliy ne'matlardan oqilona foydalanaylik.

Muborak NAZRULLAYEVA,
Jizzax viloyati, Do'stlik tumanidagi 2-umumta'lim maktabining o'quvchisi

Bugun uyali aloqa vositalarisiz dunyoni tasavvur qilish mushkul. Bu qurilma orqali kurramizning istalgan yeridan tengdoshimiz yoxud tanishimiz bilan nafaqat gaplashish, balki uni ko'rish imkoniyatiga ham egamiz. Ammo bu qurilmaning salbiy ta'siri borligidan hammaning ham xabari bo'lmasa kerak.

UYALI ALOQA VOSITASI FOYDAMI YOKI ZARAR?

Dunyo olimlari tadqiqotlarining natijalariga ko'ra, sakkiz yoshdan kichik bolalarga uyali telefon bermaslik kerak ekan. Bunday de-yishning o'ziga yara-sha sabablari bor. Shvetsiyada o'tkazil-gan tekshiruvlar shuni ko'rsatdiki, uzoq vaqt uyali aloqa vositasidan foydalangan kishilarda quloq va miya faoliyatida o'zgarish bo'lish ehtimoldan xoli emas ekan. Ma'lumki, o'n yosh-

gacha bo'lgan bola organizmning asosiy a'zolari (bosh miya, ko'z, quloq, asab tizimlari va suyak to'qimalari) hali to'liq shakllanmagan bo'ladi. Uyali aloqa vositasidan ko'p foydalanish esa o'quvchining aqliy qobiliyatini pasaytirib, asabiylashishga, mashg'ulotlardan chalg'ishiga olib keladi. Bundan tashqari, mutaxassislar uyali aloqa vositasidan tarqalayotgan zararli radioto'qinlar nafaqat bolalarni, balki katta yoshdagi kishilarning sog'ligiga ham putur yetkazishini isbotlashgan. Shvetsiyalik olimlarning bayon qilishlaricha, telefon qaysi tomonda ko'proq foydalanilsa, aynan o'sha tarafda miya faoliyatining kuchsizlanishiga olib kelarkan.

Hali bu tadqiqotlar oxiriga yetganicha yo'q. Inson, ayniqsa, o'sib kelayotgan yosh avlodning salomatligi barchamiz uchun juda muhim. Shunday ekan, to'g'ri xulosani o'zingiz chiqarib oling. Har narsani me'yorida ortiq qo'llanilishi salbiy oqibatlarga olib kelishini unutmang.

Robiya ABDULLAYEVA

ONA VA BOLA

SALOMATLIGINI KO'ZLAB...

«Sog'lom avlod uchun» xayriya fondi ona va bola salomatligini muhofaza qilish borasida ko'plab ishlarni amalga oshirmoqda.

2002-yilda mazkur Fond, O'zbekiston Sog'liqni saqlash vazirligi hamda Germaniyaning «Friedensdorf International» xalqaro tashkiloti o'rtasida imzolangan uch tomonlama shartnoma fikrimizning yorqin dalilidir.

Bu hamkorlikning davomi sifatida kuni kecha yurtimizga germaniyalik mutaxassislar tashrif buyurib, dastlab Fondning tibbiy-ijtimoiy markazida, so'ngra Farg'ona, Andijon, Namangan, Toshkent viloyati va poytaxtimizdagi bemor bolalarni chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rikdan o'tkazishdi. Shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro, Navoiy, Xorazm, janubiy hududlardan Qashqadaryo, Surxondaryo, Samarqand viloyatlaridagi bolalar ham tibbiy ko'rikdan o'tkazilib, ko'rik natijalariga ko'ra, ayrim bolalar joriy yilning avgust oyida Germaniyaning nufuzli klinikalarida 6 oydan 3 yilgacha bo'lgan muddatga davolanish uchun yuboriladi.



OZODA

«DO'STLIK» CHORLAYDI

Poytaxtimizning Chilonzor tumanidagi 270-umumta'lim maktabi ayni kunlarda dam oluvchilar bilan gavjum. Chunki maktab qoshida «Do'stlik» sport sog'lomlashtirish maydonchasi tashkil etildi.

Bu yerda bolalar faqat sport mashg'ulotlari bilan shug'ullanib qolmay, balki turli to'garaklarga ham a'zo bo'lishmoqda.

— Maktabimizda bolalar uchun «Yosh bilimdonlar», «Mohir qo'llar», «Kompyuterchi», «Yosh musavvir», «Musiqi sadolari», «Orasta qizlar» kabi to'garaklar tashkil etilgan, — deydi ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari Elvira Yusupova.

Bolalarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishda sport to'garaklariga rahbarlik qilayotgan Nodira Toirxo'jayeva, Karima Shoqosimovalar

bolalarni yanada sog'lom bo'lishlari uchun turli sport o'yinlarini tashkil etmoqdalar.

Maktab kutubxonasi mudiri tomonidan tashkil etilgan «Yosh kitobxon» to'garagi ham bolalar bilan doimo gavjum. Kutubxonachi Latifa Ergasheva bolalarni bir-biridan qiziq adabiyotlar bilan ta'minlab charchamaydi.

Sport sog'lomlashtirish maydonchasi mahalla hududida istiqomat qiluvchi barcha yoshdagilarning sevimli maskaniga aylandi. Bunday xushmanzara go'shada ta'til ham, albatta, ko'ngidagiday o'tadi.

Muzaffar AHMEDOV

TA'TIL MAZMUNLI O'TSIN

O'rtta Chirchiq tumanida 74 ta umumta'lim maktablari mavjud bo'lib, shulardan 14 tasida kunduzgi dam olish oromgohlari tashkil etilgan.

Oromgohlarda bolajonlarning yashashi va maroqli dam olishlari uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib berish bilan bir qatorda, ularning hordiq chiqarish davrida yong'in xavfsizligi choralarini ko'rishga ham alohida e'tibor qaratildi.

Barcha sog'lomlashtirish oromgohlarida yosh yong'in o'chiruvchilar a'zolari ro'yxatga olinib, hududiy yong'in nazorati xizmatchilari bilan hamkorlikda tarbiyachi va bolalar bilan doimiy ravishda suhbatlar tashkil qilinayapti, viktorinalar, musobaqalar o'tkazilayapti. Yong'in xavfsizligi burchagidan o'rin olgan plakatlarni orqali ham bolajonlar yong'inning oldini olish mumkin bo'lgan choralarini haqida tasavvurga ega bo'lishlari mumkin.

**Sh. AKRAMOV,
O'rtta Chirchiq tumani IIB YOXB**

Dildoraning she'riyatga oshuftaligini vaqtida payqagan boshlang'ich sinf o'qituvchisi Shafoat Jamilova uni maktabdagi «Ilhom» ijodkorlar to'garagiga a'zo bo'lishga undadi. To'garak rahbari Dilnoza Narzullayeva tirishqoq qizning mashqlarini sinchiklab ko'rib, ko'ngli to'ldi chog'i, ijod namunalari tuman, viloyat nashrlariga tavsiya etdi.

ORZULAR QANOTIDA...

Dildoraning «Orzular qanotida», deb nomlangan ilk kitobi nashrdan chiqqanida, qizaloqning ota-onasi Mustafo aka va Dilorom opa Ahmedovalarning quvonchdan boshi osmonga yetganini ko'rsangiz edi...

Ota-onasi, ustozlari ishonchini oqlashga ahd qilgan yosh shoira hozirda 200 dan ortiq she'r va maqollarni yoddan biladi. Uning ona Vatan, do'stlik, bahor haqidagi she'rilarini o'qir ekansiz, iqtidor egasining bolalarcha beg'ubor qarashlaridan zavqlanasiz. Bugungi kunda Buxoro viloyati, Vobkent tumanidagi 21-umumta'lim maktabining 6-«A» sinfidagi tahsil olayotgan Dildora Mufazzalova ustozlari O'zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi a'zosi O'ktam Said hamda to'garak rahbari Dilnoza Narzullayevadan mamnun.

— Men, albatta, shoira bo'laman! — deydi Dildora ishonch bilan. Uning orzulari bir olam. Orzular qanotida uchayotgan yosh ijodkorga yuksak parvoz tilaymiz.

ONAMGA

Tunlarni tonglarga ulagan onam, Menga baxt-u omad tilar hamxonam. Tikkan kashtasidan yashnaydi olam, G'amxo'rim, donoim, mehribonginam.

Xonadon bekasi — pazanda, chevar, Uyimiz chiroyi, chaqqon, elsevar. Bizga yurak taftin, mehriin bag'ishlar, Bolajon, zebo-yu mushtiparginam.

Dilbar IBODOVA




MEHRGA BOY MASKAN

Ayni yoz pallasida «Toshkent dengizi»ning qirg'og'ida joylashgan so'lim maskan bolajonlarning shodon o'yin-kulgilariga to'ldi.

uchrashuvi bu safar ham juda qiziqarli kechdi. «Yozni «Kamalak» bilan!» loyihasi doirasida «Biz sog'lom turmush tarafdorimiz», «Davra ichida davra», «Biz chekishga qarshimiz!» mavzusida

davra suhbatlari-yu estafeta o'yinlari uyushtirildi. Alijon Tojimetov, Lobar Begimqulova, Nilufar Husanboyeva hamda Abbas Isoqovdan iborat kengash a'zolari bolajonlar bilan birga barcha tadbirlarda faol ishtirok etishdi. G'oliblarga faxriy yorliqlar hamda yangi nashrdan chiqqan badiiy kitoblar sovg'a qilindi.

Respublikamizning Orolbo'y hududidan kelgan bolajonlar va Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilaridan iborat 200 nafar



Anvoyi gullar bilan bezangan ajoyib go'shaga tashrif buyurgan kishi tabiatning betakror go'zalliklari aks etgan manzaradan zavqqa to'ladi. Toshkent viloyatining O'rtta Chirchiq tumanidagi «Mehrijon» bolalar sog'lomlashtirish oromgohi bolajonlarni ana shunday betakror tarovati bilan bag'riga oldi.

Bu yerda o'tadigan har kun dasturlashtirilgan shoularga boy kechmoqda. Suv ombori bo'yiga qilinadigan sayr esa har gal dam oluvchilarga unutilmas onlarni hadya etadi. «Kamolot» YOIH tuman Kengashi vakillarining bolalar bilan navbatdagi



dam oluvchilar bu yerda yaratilgan shart-sharoitlardan mamnunligini ular bilan muloqot chog'i bilib oldik. Bunda Xosiyat Turg'unboyeva, Olimjon Tursunboyev, Valentina Belyayeva, Noila Badgudinova hamda Samig' Aminov singari fidoiy pedagog, xodimlarning sa'y-harakatlarini alohida e'tirof etsak arziydi.

Nurbek NURALI o'g'li

Lesson 41

USE THE VERBS IN THE RIGHT TENSE
(Fe'llarni to'g'ri qo'llang)

Fill in the blank with a word from the list. Use each word only once: Carry, raise, wears, hates, play, go.

1. Komil ... to go shopping.

2. Olim is ... a lamp in one hand.

3. Nargiza ... glasses, doesn't she?

4. Do the boys ... football after school?

5. Do you like to ... swimming in the lake?

6. Can you ... that box into the house?



Risolat ISMOILOVA

IN OUR HOUSE...
(Uyimizda...)

Write the words in the correct column.

An armchair, a fridge, a television, a coffee table, a shelf, a plant, a stereo, a lamp, a cooker, a washing machine, a telephone, a cupboard, a cup, a sofa.


The living room	The kitchen	Both
An armchair		

Let's strengthen our knowledge
(Keling, bilimimizni mustahkamlaymiz)

Dear pupils we studied professions in our last lessons and now match a job in A with a line B.

A	B
a A pilot	designs buildings
b An interpreter	delivers letters
c A nurse	looks after people in hospital
d A barman	looks after money
e An accountant	writers for a newspaper
f A journalist	translates things
g A postman	sells things
h An architect	a flies planes
i A shopkeeper	serves drinks

HOW MANY SYLLABLES?
(Nechta bo'g'in bor?)



CROSSWORD

Crossword puzzle grid with the word INSTRUMENT written vertically. Surrounding images include a drum, a stringed instrument, a flute, a violin, and a piano.

Umida UMAROVA

DESCRIBE THE ANIMALS
(Jonivorlarni ta'riflang)

Give definition to these animals with the help of adjectives:



TONGUE TWISTER
(Tez aytish)

Near an ear, a nearer ear,
a nearly entire ear.

Dinora SHAKIROVA tayyorladi

O'ZBEGIMNING QIZIMAN

Go'zallikni suyguvchi,
Orzu-niyat qilguvchi,
O'rganguvchi, bilguvchi,
Onam aytar so'ziman,
O'zbeginning qiziman.

Mehribon va mehnatkash,
Izlanuvchan zahmatkash,
Ko'zlarda porlar otash,
Dadamning yulduziman,
O'zbeginning qiziman.

Dilga ezgulik solgan,
El-yurt duosini olgan,
G'ayrat otiga mingan,
Mahallamiz yuziman,
O'zbeginning qiziman.



Barchinoy USMONOVA,
Samarqand viloyati, Pastdarg'om tumanidagi
109-umumta'lim maktabi o'quvchisi

VATAN

Senga bobom tolbeshiklar yasab bergan,
Senga momom tunlar bedor alla aytgan,
Seni deya o'g'lonlarning jondan kechgan,
Onamdayin asragayman seni, Vatan!




O'zbekiston dala-dashting birday go'zal,
Ta'rifiingni madh etishar bitib g'azal,
Tarixing buyukdir, shonlidir azal,
Bog'laring bag'ringni bezagan, Vatan!

Joningga jon bo'lib seni kuylayman,
Barkamol avlodga parvoz tilayman,
Bag'ringni gullarga, chechakka burkab,
Otamdayin suyangayman senga, Vatan!

Go'zal QO'ZIBOYEVA,
Jizzax viloyati, Baxmal tumanidagi
30-umumta'lim maktabining
9-sinf o'quvchisi

NAY NAVOSI



Bir kun qo'shni bolakay,
Urinibdi xo'p tinmay,
Pishiqqina qamishdan,
Yasab oldi kichik nay.

Shodon bo'lib ishidan,
Qadam bosibdi shaxdam,
Asta puflagan ekan,
Go'zal kuy chiqdi naydan.

Qushlar bo'lib unga jo'r,
Kuy taraldi biram zo'r,
Bulbul yakkaxon bo'ldi,
Ko'ngillarga nur to'ldi.



Behzodjon HAMIDULLAYEV,
poytaxtimizning Olmazor tumanidagi
219-umumta'lim maktabi o'quvchisi

SAHRO KEMASI



Menga nasib etgan baxt,
Chanqamayman uzoq vaqt.
Minib olsa meni kim,
Ushlab turar o'rkachim.

Agar qolsam yo'liqib,
Hamma qarar qiziqib.
Men tuyaman shunaqa,
Ko'p tikilmang unaqa.

Dasht-u cho'lda yashayman,
Shoshmay qadam tashlayman.
Yantoq shirin ovqatim,
Ko'pga yetar toqatim.

Diyorbek HAKIMOV,
Namangan viloyati, Chust
tumanidagi 14-umumta'lim
maktabi o'quvchisi

YOZ



Atrof go'zal, beg'ubor osmon,
Barcha xursand, aniq begumon,
Bolalarga ta'til, oromgoh,
Issiq qumli jo'shqin o'yingoh.
Qovun-tarvuz barisidan ol,
Iliq suvda suz baliq misol,
Kuydirganda jon-tanni quyosh,
Sog'lom bo'lar barcha qari-yosh.
Yozda hayot juda mazmunli,
Yer-zamin ham yoz bilan ko'rqli.

Shahzoda ABDURAHMONOVA,
Toshkent viloyati, Qibray tumanidagi 6-umumta'lim
maktabining 6-«B» sinf o'quvchisi

(Boshi o'tgan sonda)

– Katta buvajon, bitta amaki sizga achchalom ettila...

– Yashang, bo'tam, uyga kiring, demadingizmi?
– Yo'q, – Davronbek shunday dedi-yu, yana yugurganicha ko'chaga chiqib ketdi. U yoqqa qaradi, bu yoqqa qaradi, hech kim ko'rinmadi. Ota allaqachon ketib qolgan edi. Davronbek yana o'rindiqda mashinasini o'ynay boshladi. Unga shunaqangi berilib ketgan ekanki, qo'shni bobo yaqinlashib qolganini ham sezmay qoldi.

– Zerikmayapsizmi, Davronbek?! – dedi bobo uni sizlab (Negadir uni hamma sizlaydi-ya).

Bu gal Davronbek ancha shoshib qoldi. O'rnidan tura solib, salom berdi.

– Vaalaykum assalom. Mashinangiz muncha chiroyli?! – havasi kelgandek bo'ldi boboning.


– O'ynismi, mang, – shunday deya Davronbek mashinasini boboga uzatdi.

Bobo mashinani qo'lga olib, tomosha qilgandek bo'ldi.

– Ichida haydovchisi ham bor ekan, – o'zini bolalardek tutdi kekxa, – mening ham dadam bo'lganlarida, olib berardilar, – qo'shib qo'ydi

DAVRONBEK

(Hikoya)



biroz o'ksigandek bo'lib yana.

– Olaqoying.

– Yashang, Davronbek, rahmat. Bobongizga salom ayting.

Ana shunda bobosining boyagina aytgan gapi esiga tushdi-yu, qo'shni boboning qo'lidan mahkam ushlab oldi. «Yuling, yuling», dedi qo'ymay. «Boshqa safar kirarman», deganiga qaramay ichkariga boshladi. Qo'shni bobo bolaning ra'yini qaytarmaslik uchun unga ergashdi.

Ayvondan chiqayotgan katta bobosi ularni ko'rib hayron bo'ldi.

– E... keling, Tal'atvoy, nechuk-nechuk?..

– Nabirangiz qo'yarda-qo'ymay olib kiriyapti. Biror yumush bormi? – biroz ajablanib dedi Tal'at bobo ham.

Katta bobo nevarasining ishidan mamnun bo'lib pastga tushdi. Ikki kekxa qo'l olib, quyuq so'rashishdi.

Bu orada Davronbek mehmonxona eshigini ochib, ularni kutib turardi...

(Tamom)